



SOTSIOPRAGMATIKA SOHASINING MOHIYATI HAMDA UNING LISONIY TAHLILDAGI AHAMIYATI

Rahmonova Bahora Yuldosh qizi


Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Sotsiopragmatika pragmatikaning bir tarmog'i bo'lib, u tildan foydalanishning ijtimoiy jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. U hokimiyat, maqom, jins va madaniyat kabi ijtimoiy omillar tildan foydalanish va talqin qilishga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Sotsiopragmatikada ma'ruzachilar ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, kuch dinamikasini muhokama qilish va ijtimoiy o'ziga xosliklarni yetkazish uchun tildan qanday foydalanishiga qaraydi.

Kalit so'zlar: Sotsiopragmatika, tahlil, tilshunoslik, dinamika, metod.


KIRISH

Pragmatikaning ikki yo'nalishi pragmalingvistika va sotsioprgamatika bir-biridan biridan uzilgan sohalar bo'lmay, ular birgalikda shakllanadi va o'zaro hamkorlikda rivojlanadi. Sotsiopragmatikaning shakllanishi J. Lich, G. Kasper, P. Braun, S. Levinson, J. Yul nomi bilan bog'liq. Penelor Braun va Stefen Levinson 1987-yilda nashr etishgan hurmat tamoyiliga bag'ishlangan maxsus risolada "sotsiolingvistika pragmatikaga tadbiq etilishi lozim" degan shiorni olg'a surishdi. (Brown, Levinson 1987:281) [1] Sotsiopragmatika paragmatik ma'noni baholash bilan bog'lanadi, ma'lum bir tildan foydalanuvchilarning ijtimoiy masofasi, til hamjamiyatining ijimoiy qoidalari va tasdiqlanishi, nutqning ijtimoiy me'yorlari, nutq amaliyotlari, qabul qilingan nutqiy xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Pragmalingvistika va sotsiopragmatika atamalarining bir-biridan mustaqil ekanligi Lich (1983) va Tomas(1983) tomonidan dastlab ilgari surilgan. [2] Lich quyidagi uchta farqni ajratadi:



- Umumiy pragmatika – “tildan kommunikativ foydalanishning umumiy shartlari”.
- Sotsiopragsmatika – “tildan foydalanish bo‘yicha “mahalliy” shart-sharoitlar”.
- Pragmalingvistika- “Qaysidir tilning ma’lum bir ma’lumotni yetkazish uchun taqdim etadigan maxsus manbalari”. Ular o‘rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi quyidagi 1-chizmani taqdim etgan:

Lich bu uchta yo‘nalish pragmatika doirasida bir-birini to‘ldiruvchi sohalar sifatida ko‘rsatadi va quyidagicha ta’kidlaydi: “... Hamkorlik tamoyili xushmuomalalik tamoyili turli madaniyatlarda yoki til jamoalarida, turli ijtimoiy vaziyatlarda, turli ijtimoiy tabaqalarda va hokazolarda turlicha ishlaydi. Natijada pragmatik tavsiflar muayyan ijtimoiy sharoitlarga nisbatan tegishli bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, sotsial-pragmatika pragmatikaning sotsiologik interfeysidir”. [3] Lich “mahalliy shart-sharoitlar” ga aniq ta’rif bermasa-da, uning izohidan turli madaniyatlar, til jamolari, ijtimoiy vaziyatlar, ijtimoiy sinflar, to‘g‘rirog‘i, har qanday ijtimoiy kontekstni nazarda tutganligi oydinlashadi.



1- chizma : Pragmatika: umumiy pragmatika, pragmalingvistika va sotsiopragsmatika (Leech 1983).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Adabiy matnni idrok yetishni o‘rganish kerak. Shu maqsadda nutqning bu turi uchun mavjud bo‘lgan mazmun ifodasining umumiy qonuniyatlari bilan tanishish lozim. Shuni unutmaslik kerakki, adabiy matn mazmunining uch turiga ma’lum darajada mos keladigan matnni idrok yetishning uch darajasi mavjud.



Birinchi darajada aniq mazmun idrok qilinadi (bevosita ifodalanadi), ikkinchisida – implitsit (chuqur, bevosita ifodalanmaydi; subtekst), uchinchisida – estetik (barcha san’at asarlariga xos bo‘lib, insonda go‘zallik tuyg‘usiga ta’sir qiladi).

Matnni tahlil qilishda so‘zning funksional bo‘yoqqa egaligini aniqlash yetarli bo‘lmaydi. Bunday so‘zning asar yaratilish vaqtidagi adabiy til fonida ishlatilishini baholash (tabiiy, arxaik yoki innovatsion bo‘lsin), undan foydalanish maqsadini aniqlashga harakat qilish (qahramonning nutq xususiyatlari, muallifning hodisani baholash bashorati, janr qonunlariga bo‘ysunish va boshqalar) bilan bog‘liqdir. Kundalik hayot taassurot, salbiy yoki “kundalik” his- tuyg‘ular ifodasi – bu yozuvchi har doim tili /yuqori so‘z bilan belgilangan qoidalarga muvofiq uslubiy bo‘yoqdor so‘zdan foydalanish matnda tantanavor, milliy hissini yaratadi deb emas, aslida reallik haqida ham o‘ylash zarur. Uslubiy bo‘yoqdorlik kontekstda maxsus soyalarni, ba’zan esa tilning teskari ma’nosini anglatishi ham mumkin.

Tohir Malikning «Shaytanat» asaridan olingan parchada funksional uslub bo‘yoqlardan qanday foydalanilganiga guvoh bo‘lish mumkin:

“O‘g‘lining peshvoz chiqmaganidan dadasi ham ajablanib, «Toychoq, uydamisan?» deb qo‘ydi. Eshikni ochib, tanchali uy ichkarisiga bir odim tashladi-yu, hayratlanib to‘xtadi.

— Siz qamoqqa olindingiz, — dedi past bo‘yli odam, uning orqasiga o‘tib.

— Xalq dushmani sifatida, — dedi novcha odam, uning ro‘parasiga turib olib.

Dadasi indamadi. U: «Dadam ikkalasini urib-urib ko‘chaga otvorsalar edi», deb juda-juda istagan edi. «Nimaga urmayaptilar, kuchlari yetmaydimi? Men borman-ku!»

— Dadamga tegmang! Tegmang dadamga! — daf’atan kelgan hayqiriqni to‘xtata olmadi. Irg‘ib turib uzun bo‘yining yelkasiga tirmashdi.

— Jim bo‘l, ilonvachcha! — u shunday deb itarib yubordi.

— Bolaga tegmang! — deb baqirdi dadasi.

— Bo‘ldi, tomosha tamom, yur, — dedi past bo‘yli odam.



— Birodarlar, — bu safar dadasining ovozi titrab chiqdi, — axir bugun yangi yil, o‘g‘lim yolg‘iz. Ertaga tong sahar aytgan yeringizga o‘zim yetib boraman.”[7]

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar uslubiy bo‘yoqdor ma’no ifodalamoqda. O‘zbek tilida “toychoq” so‘zi asli otning bolasi ma’nosini anglatadi. Ot insonning eng yaqin jonvorlaridan biri, ya’ni o‘z davrida yigit kishining hamrohi, yo‘ldoshi, yordamchisi, do‘sti bo‘lgan. Shuning uchun ham otning bolasi o‘g‘il bolalarni erkalash uchun qo‘llaniladi. Gender tushuncha nuqtai nazaridan ham bu o‘ziga xoslikka ega, chunki toychoq qiz bolalarga nisbatan qo‘llanmaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xullas, detektiv asarlar matnida lisoniy vositalar turli ijtimoiy xoslanishlarni ifoda qiladi. Ayniqsa, jamiyatning turli soha va ijtimoiy qatlamiga tegishli bo‘lgan har xil dunyoqarashdagi kishilar nutqida qo‘llanilayotgan til birliklarining sotsiopragmatik aspektda tadqiq etilishi tilshunoslik uchun zarur xulosalar berishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2018. – B.147
2. Wolfram Bublitz ,Andreas H. Jucker, KlausP. Schneider. Handbooks of Pragmatics. – 2011, B.77
3. J. Culpeper. Historical sociopragmatics. – 2011, B. 3, 6
4. Xojiyeva M. O‘zbek tilida shaxs tavsifi. - Uzacademia/vol1,issue3 sentabr, I jild. – 2020, B. 169
5. Yuldosheva X. Badiiy matnni tadqiq qilishda sotsiopragmatik. Qarshi: QarDU xabarlar, - 2020, B.154
6. Safarova G. Evfemizm – milliy – mental xoslikni namoyon etuvchi til birligi sifatida. – 2021, B. 71
7. Tohir Malik Shaytanat. Roman. 1-qism. <https://forum.ziyouz.com/index.php>